

MUSTAQIL TA'LIM OLISH KO'NIKMASI FUNKSIYALARI

Orinbaev Ansatbay Amanbaevich

Nukus davlat pedagogika instituti "Aniq va tabiiy
fanlarni masofadan o'qitish" kafedrası stajyor o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14211715>

Mustaqil ta'lim olish jarayoni nafaqat ta'lim muassasalarida, balki hayotning boshqa jabhalarida ham muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar uchun o'z bilimlarini mustaqil ravishda kengaytirish, yangi g'oyalarni o'rganish va individual muvaffaqiyatlarga erishish imkonini yaratadi. O'z-o'zini rivojlantirish va mustaqil o'rganish qobiliyatlari zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli yashash va ishlash uchun zaruriy ko'nikmalar hisoblanadi.

Ushbu maqolada o'rganish jarayonida bir nechta metodologik yondashuvlar qo'llanilgan. Bular orasida [1]:

1. **Nazariy tahlil:** Mustaqil ta'limning nazariy asoslari va psixologik jihatlarini o'rganildi.

2. **Empirik tadqiqot:** O'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini baholash uchun so'rovnomalar o'tkazildi.

3. **Literaturaga tahlil:** Mustaqil ta'lim bo'yicha mavjud adabiyotlar va tadqiqotlar o'rganildi.

Oliy ta'limning o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifalaridan biri mutaxassisni o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil ravishda bili- mini ko'paytirishga, innovatsion faoliyatga qobil bo'lgan ijodiy shaxsiyatini shakllantirishga yo'naltirishdan iboratdir. Bunday vazifani amalga oshirish uchun tayyor bilimlarni o'qituvchi tomonidan talabaga berishning o'zigina kamlik qiladi. Bunday yo'l talabani bilimlarni o'zlashtirishning passiv iste'molchisiga aylantirib qo'yadi. Vaholanki, bugun bizga bilimlarni o'zlashtirishdagi passiv iste'molchi emas, balki uning faol ijodkori zarurdir. Natija shunday bo'lishi kerakki, bo'lg'usi mutaxassis har qanday nazariy va amaliy muammoni ifodalay oladigan, uni yechishning yo'llarini ilmiy yoki metodik jihatdan tahlil qilishni uddalaydigan eng munosib va muvofiq natijalarni topib, uning to'g'riligini isbotlab bera oladigan bo'lsin.

Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar ta'lim mazmuni bilan chambarchas bog'liq. Yangilanishlar talabalar o'qishini tashkil etishning yangi shakli va usullari haqida ham bosh qotirishni talab etadi. Shu ma'noda ta- labalarning mustaqil ishlarini tashkil etish muhim shaklgina emas, balki ta'lim jarayonining asosini tashkil etuvchi muhim qism bo'lishini taqozo etadi.



Talabalar mustaqil ishining asosiy maqsadi — talabada oʻquv ishlarini mustaqil bajarishda kerak boʻladigan bilim, koʻnikma va malakalarning tashkil topishi va rivojlanishi.

Talabalar mustaqil ishi uchun belgilangan vaqt meʼyoriga binoan kafedralarda barcha predmetlardan tashkiliy shakllar, mustaqil ish variantlari va mustaqil bajarish topshiriqlari ishlab chiqiladi, ular fakultetning ilmiy-metodik kengashida va kafedra yigʻilishlarida muhokama qilinib, tasdiqlanadi.

Talabalar mustaqil ishini tashkillashtirish uning metodik taʼminlanishining tematikasi va shakllari roʻyxatini tuzish uchun har biri- ning maqsad va vazifalarini ifodalab berish, yoʻriqnoma yoki metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ilmiy adabiyotlarni tanlash degani.

Mustaqil taʼlim — oʻquv materialini mustaqil oʻzlashtirish, murakkablik darajasi turlicha boʻlgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy koʻnikma hamda malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat.

Mustaqil taʼlim — olingan bilim, koʻnikma va malakalarni mustahkamlash, qoʻshimcha maʼlumot yoki materialni mustaqil oʻrganish maqsadidagi oʻquv shakli.

Mustaqil ish — oʻqituvchining topshirigʻi va uning rahbarligida oʻquv vazifasini hal etadigan taʼlimning faol metodi. Mustaqil ish bu qoʻyilgan maqsad bilan bogʻliqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabaning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni oʻz vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir.

Taʼbir joiz boʻlsa, boʻlajak mutaxassisning fikrlash tarzini tarbiyalashga qaratilgan barcha harakat-faoliyat ularning asosini tashkil etadi. Talaba mustaqil fikri tugʻilishiga, uning bilish faolligini oshirishga imkon beradigan har qanday mashgʻulot turi mustaqil ishlar bilan chambarchas bogʻliqdir.

Mustaqil taʼlimni talabalarga bilim berishda ularni oʻz holiga tashlab qoʻyib, ularga beriladigan topshiriq va yuklamalarni kamaytirish deb tushunmaslik kerak, balki oʻqituvchilar tomonidan muntazam boshqariladigan talabalarning interaktiv mustaqil faoliyatidir. Oʻquv jarayoni sifatini oshirishda mustaqil taʼlimning roli katta. Buni anglagan holda, yurtimiz oliy taʼlim muassasalarida oʻquv mashgʻulotlariga ajratilayotgan mustaqil taʼlim soatlari ulushi muntazam oshirib borilmoqda. Talaba mustaqil taʼlim uning manfaatini koʻzlab amalga oshirilayotganini tushunishi kerak.



Aslida, talabaning mustaqil ishi degan tushuncha uning auditoriya va undan tashqarida, o'qituvchi rahbarligi ostida yoki o'qituvchi ishtirokisiz amalga oshiriladigan mustaqil ish majmuini anglatadi.

Mustaqil ish qanday sharoitlarda amalga oshiriladi:

Bevosita auditoriyada — ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar yoki laboratoriya ishlari bo'yicha vazifalar berish jarayonida.

O'qituvchi bilan dars jadvalidan tashqari paytlardagi bevosita muloqot chog'ida maslahatlar berishda, ijodiy muloqotlar jarayonida, qarzдорlikni yo'qotishda yakka topshiriq bajarishda va boshqalar.

Kutubxonada, uyda, talabalar uylarida, kafedralarda talaba tomonidan o'quv yoki ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida.

Bu ish turlari orasidagi chegaralar juda qat'iy bo'lmasdan, bir- biriga osonlikcha o'tib turishi mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, talabalarning mustaqil ishlari auditoriyada ham, undan tashqarida ham bo'lishi mumkin. Auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ishlar asosiy o'rin tutadi.

Mustaqil ish bo'yicha test savollari, topshiriqlar va mashqlar ustida ishlash asosan mustaqil bajariladi. Bu ish natijalari esa auditoriya (amaliy va laboratoriya) mashg'ulotlarida o'qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi va baholanadi.

Demak, mustaqil ish va auditoriya mashg'ulotlari bir-birini to'ldiradi, talabalarning bilim va kasbiy kompetensiyalarini oshiradi.

Talabalarning faol mustaqil ishlari faqat jiddiy va barqaror qiziqishlar mavjud bo'lgandagina amalga oshishi mumkin. Bunday eng jiddiy omil — kelgusi samarali kasbiy faoliyatga tayyorgarlik. Talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga imkon beruvchi ichki omillarni ko'rib chiqaylik:

Bajarilayotgan ishning foydaliligi. Agar talaba o'z ish natijalarining ma'ruza jarayonida, metodik qo'llanmada, laboratoriya ishi- da yoki amaliy mashg'ulotlarda, maqolalar tayyorlashda foydalanilishi mumkinligini bilsa, uning bajarayotgan ishiga bo'lgan munosabati keskin tarzda yaxshi tomonga o'zgaradi, hamda ish sifati ham ortadi. Shunga ko'ra, talabani ruhan bunday ishga tayyorlash, bajariladigan ishning zarurati ko'rsatib berilishi kerak.

Talabaning ijodiy faoliyatdagi ishtiroki. Bu nihoyatda xilma-xil ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Xususan, kafedralar tomonidan olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlari, badiiy ijod, metodik ishlar va hokazolar.

Fan olimpiadalarida, ilmiy-tadqiqot ishlarida, amaliy ishlar tanlovlarida ishtirok etish va boshqalar.





Bilimlarni nazorat qilishda qiziqtiruvchi omillardan foydalanish (reyting, testlar, noan'anaviy imtihon shakllari v.b.). Bu omillar tegishli holatlarda musobaqa ruhini vujudga keltiradi. Mana shu holatning o'zi talabada o'z ustida ishlashni, o'zini rivojlantirishga ichki ehtiyojini shakllantiradi va rivojlantiradi.

Mustaqil ishlarni tashkil etish mazmuni va shakllariga o'quv jarayonida yetarlicha vaqtning ajratilayotganligi ham talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishiga imkon beradi.

Bugungi kundagi kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limning nisbati bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida 40/60 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha, magistratura mutaxassisliklarida 30/70 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha mustaqil ishga mo'ljallangan o'quv rejasida mustaqil ishlarni tashkil etish belgilangan. Bundan ko'rinib turibdiki, mustaqil ishlar uchun yetarlicha vaqt ajratilgan. Asosiy gap ana shu vaqtdan samarali va unumli foydalanishda, xolos.

Talabalarning auditoriyadan tashqari ishlardagi faolliklarini oshirishdagi muammolar bir qator qiyinchiliklar bilan bog'liq. Bunda mustaqil ishlarni bajarishga ko'pgina talabalarninggina emas, hatto ayrim professor-o'qituvchilarning ham tayyor emasliklarini ko'rish mumkin.

Bu ko'pincha kasbiy yoki psixologik yo'nalishda namoyon bo'ladi. Buning yoniga sifatsiz informatsion ta'minotni ham qo'shsa bo'ladi. Ko'p hollarda informatsion ta'minot talab darajasida bo'lmaydi, buning natijasida samaradorlikning pasayib ketishi kuzatiladi. Shuningdek, talabalarda o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qligi hamda ularda nutq madaniyatining yaxshi rivojlanmaganligini ham ularning mustaqil ta'limda faol ishtirok etmasliklariga sabab bo'luvchi omillar qatoriga qo'shishimiz mumkin.

Talabalar mustaqil ishlari (keyingi o'rinlarda — TMI)ni tashkil etishdagi asosiy vazifa har qanday shakldagi mashg'ulotlarda intel- lektual tashabbus va tafakkurni rivojlantirish uchun psixologik- didaktik sharoitlarni yaratishdan iboratdir. TMIning tashkil etishdagi bosh tamoyil talabalarning individual ishlashga o'tishlarini ta'minlash bo'lishi kerak. Bunda ayrim topshiriqlarni formal va passiv bajarishdan uni ongli va faol bajarish sari yo'llash asosiy o'rin tutishi kerak. TMIning maqsadi avval o'quv mazmuni bilan, keyin esa ilmiy axborotlar bilan mustaqil ishlashga o'rgatish, o'z-o'zini yo'naltirish va rivojlantirish asoslarini, keyinchalik o'z malakasini muntazam oshirib borish ko'nikmasini hosil qilishdir.

Bunda hal qiluvchi rolni o'qituvchi ado etadi. U, umuman, talaba bilan emas, balki muayyan shaxs bilan ishlayotganini har doim diqqat markazida



bo'lishi lozim. O'z talabasining kuchli va ojiz tomonlarini yaxshi bilishi, individual qobiliyati va qiziqishlarini nazarda tutishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchining vazifasi talabaning — bo'lajak yuqori malakali mutaxassisning yaxshi tomonlarini ko'rish va ko'paytirishdan iborat.

Amaliy mashg'ulotlarning teng yarmi, ya'ni bir juftlikning 50 foizi masala va mashqlarni mustaqil bajarishga sarflanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Uni quyidagicha tashkillashtirish mumkin:

1	O'qituvchining kirish so'zi (mashg'ulot maqsadi, asosiy masalalar)
2	Tezkor so'rov
3	1-2 masala yoki mashqni doska yonida bajarish
4	Masala va topshiriqlarni mustaqil bajarish
5	Topshiriqlarni bajarishdagi xato va kamchiliklar ustida ishlash (joriy mashg'ulot oxirida yoki keyingi dars boshlanishida)

Mashg'ulotlarni o'tkazishda mustaqil ishlar va topshiriqlarning katta banki bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ular murakkablik darajasiga ko'ra ajratilsa, yanada yaxshi bo'ladi.

Mashg'ulotlarni o'tkazishda fanning xususiyatidan kelib chiqib, quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

Qiyinlik darajasiga ko'ra bir xil bo'lgan bir qator topshiriqlarni berish. Bunda muayyan vaqt oralig'ida eng ko'p mashq bajargan talaba yuqori baho oladi.

Qiyinlik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar beriladi. Bunda baho topshiriq turiga qarab belgilanadi.

Talabalar mustaqil ishining amalga oshirilishiga qaratilgan metodik ta'minoti va nazorati.

O'quv jarayonining metodik ta'minoti majmuini ishlab chiqish TMI samaradorligini ta'minlashning eng muhim shartidir. Bu majmuaga ma'ruza matnlari, darsliklar, o'quv va metodik adabiyotlar, laboratoriya ishlari, topshiriq va vazifalar banki, fanning axborot bazalari va boshqalar kiradi.

O'quv-metodik adabiyotlar faqat axborot berishgina emas, balki tashkiliy-nazorat qilish vazifalarini ham bajarishi kerak. O'quv-metodik adabiyotlarning boshqaruvchilik vazifasi sahifalar belgilashda, o'quv materialining asosiy qoidalarini matnda ajratib ko'rsatishida, o'quv materiallarining o'zaro aloqadorligini ko'rsatib beruvchi tarkibiy-mantiqiy jadvallarining mavjudligida namoyon bo'ladi.



TMI natijali bo'lishi esa uning faol nazorati bilan bog'liq.

Nazoratning quyidagi turlari mavjud:

- kirish (dastlabki) nazorati, bunda talabanning navbatdagi fan o'rganilishidan oldin shu fanga oid bilim va malakalari nazorat qi- linadi;
- joriy nazorat, ya'ni ma'ruza, amaliy yoki laboratoriya mashg'ulot- larida materialning o'zlashtirilishi muntazam ravishda nazorat qilib boriladi;
- oraliq nazorat, bu kursdagi muayyan bo'lim yoki qismning tugashiga bog'liq bo'ladi;
- o'z-o'zini nazorat qilish — fanni o'rganish jarayonida nazorat ishlariga tayyorlanishda talabanning o'zi tomonidan amalga oshiriladi;
- yakuniy nazorat — fan o'qib bo'lingach imtihon yoki sinov shaklida o'tkaziladi.
- TMI ni tashkil etishning shakl va usullari nihoyatda ko'p. Bulardan qaysi birini tanlash va foydalanish konkret fanga, o'qituvchining maqsad va vazifalariga, qolaversa, uning tajriba va mahoratiga bog'liqdir.

Hozirda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar va baja- rilayotgan ishlar bo'lajak mutaxassislar o'zlari uchun zarur bo'lgan barcha axborot hamda ma'lumotlarni mustaqil topish va yig'ish mahoratini, ularni tahlil eta olish malakasini egallagan bo'lishlarini taqozo etmoqda.

Mustaqil ishlash har bir talabadan ma'lum bir tizimga rioya qi- lishni, tirishqoqlikni, maqsad sari intilishini talab etadi. Shuning uchun ham ko'pchilik talabalarda oliy o'quv yurtidagi kundalik hayot- ni to'g'ri tashkil qilish muammosi paydo bo'ladi. Ba'zi birinchi kurs talabalari o'rganilayotgan materiallarni yetarli o'zlashtirib olish uchun vaqt yetishmasligidan, yuklamalar ko'pligi uchun kam dam ola- yotganliklaridan shikoyat qiladi.

Bunday vaziyat o'z vaqtini to'g'ri taqsimlay olmagan, har bir daqi- qasining qadriga yetmagan talabalardagina sodir bo'ladi. Shunga ko'ra, mustaqil ishlashda kun tartibiga qat'iy rioya qilgan holda ish boshlash to'g'ri va maqsadga muvofiqdir. Kun tartibini maqsadga muvofiq tarzda tuzish uchun quyidagicha ish yuritish kerak:

Bir sutkani bir qancha zaruriy ulushlarga bo'lish kerak: bunga ishlash, ovqatlanish, badan tarbiyasi, hordiq chiqarish, xo'jalik ishlari va shu kabilar kiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Rasulov, D. (2019). Mustaqil ta'lim: nazariy va amaliy jihatlar. Ta'lim tadqiqotlari.





2. Nasriddinova, O. (2020). Tanqidiy fikrlash va mustaqil ta'lim. Psixologiya va ta'lim.
3. Tursunov, J. (2021). O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari. Ta'lim tizimi.
4. Sultonov, E. (2022). Mustaqil o'qish: strategiyalar va metodlar. O'zbekiston ta'lim muassasasi.

